

**MUSIQALI TETATTR AKTYORLARINI MUSIQIY QOBILIYATINI
SHAKILLANTIRISHDA BOSHLANG'ICH KO'NIKMALARING
AHAMIYATI**

Saidakbar Abdullayev Xusanboyevich,
O'zDSMI musiqali teatr aktyorligi san'ati
Yo'nalishi 2-kurs magistri

ANNOTATSIYA

Maqolada san'at oliyoxlarida o'qish istagini bildirgan yoshlarga tavsiyalar va bugungi kunda san'at oliyoxlariga kirish uchun nimalarga ko'proq e'tibor qaratishi lozimligi, qolaversa bugungi yosh avlodni musiqiy bilimlarini o'stirish natijalari haqida tahlil qilingan.

Tayanch iboralar: Vokal, san'at, aktyor, musiqa, pedagok, teatr, nafas, mashq, diafragma.

Jahon pedagogika va musiqashunoslik fanlarida jamiyatdagi musiqiy madaniyat saviyasini oshirish, yuqori malakali musiqa ijrochilarini tayyorlash, ta'limini takomillashtirish orqali musiqiy qobiliyatni rivoilantirish texnologiyalarni takomillashtirish boyicha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Dunyoda musiqa san'atining inson ma'naviy-ma'rifiy kamolotida tutadigan alohida o'rni e'tirof etilgan haqiqat bo'lib, ayniqsa, musiqa va san'at oliy bilim yurti talabalarida musiqiy qobiliyatni shakllantirish, vokal-xor malakalarini yuqori darajada rivojlantirish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, talaba yoshlarni musiqiy ta'lim orqali zamonaviy musiqa ijro san'atiga jalb qilishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish hozirgi jahon ijtimoiy pedagogika fanining eng samarali vazifalaridan ekanligi ma'lum.

Musiqali teatr aktyorlarini tarbiyalashda ham bevosita musiqiy bilimning o'rni ustuvor vazifalardan biridir. Shu boisdan ham musiqali teatr aktyorlarini 1-kursdan

boshlab musiqiy bilimlarini rivojlantirish uchun bir qator mutaxasislik fanlari mavjud bo‘lib ular orasida “vokal” fanining o‘ziga xos o‘rni mavjud.

“Vokal” fani talabalarning musiqiy qobiliyatini yanada rivojlantirish va kuylash maxorati san’ati ko‘nikmalarini o‘rgatishga asoslanadi. Vokal fanining asosiy maqsadi – bo‘lajak aktyor talabalarini vokal san’ati vositasida ularga ovoz qo‘yish, nafas malakalari, eshitish qobiliyatini rivojlantirish, turli kuylash yo‘llari, talaffuz muammolari, turli dinamik nyuanslarda kuylay bilish hamda pedagogik malakalarini amaliy va nazariy asoslari bilan qurollantirish, estetik va badiiy didlarini tarbiyalash hamda badiiy ijrochilik maxoratini o‘rgatish va o‘stirishdir. Talabalarning ovoz imkoniyatlarini vokal – badiiy jixatdan rivojlantirish ularga kuylash texnikasini o‘rgatish ishlari bilan organik tarizda qo‘sib olib boriladi. Shuningdek, vokal malakalarini egallash, vokal pedagogikasining sistemalilik, izchillik, oddiydan murakkabga, yakka yondoshish kabi qator didaktik prinsiplarga asoslanadi.

Afsuski so‘ngi yillarda san’at oliyoxlarida o‘qish istagini bildirib tashrif buyurgan ba’zi talabgor yigit-qizlarning musiqiy bilimlarining yetishmasligi, ovoz imkoniyatlari chegaralanganligi, eshitish qobiliyati sust ekanligi ko‘rinib qolmoqda. Natijada talim jarayonida ushbu talabalar musiqaga asoslangan fanlarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa kelajakda talaba yoshlarning musiqali teatrlar sahnasida ijodiy faoliyatiga keskin ta’sir ko‘rsatmoqda va e’tirozlarga sabab bo‘lmoqda.

Musiqali teatr aktyorligi san’ati yo‘nalishida o‘qish istagini bildirgan talabgor yoshlar albatta musiqa va san’at maktablarida yoki texnikumlarida boshlang‘ich ko‘nikmalarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqli. Hususan san’at oliyoxining talabasi bo‘lish istagini bildirgan yosh talabgorlar vokal faning mazmunini anglab yetishi muhim vazifalardan biri bo‘lishi lozim.

Vokal ijrochiligi tarbiyaning asosiy tomonlaridan biri bo‘lib oquvchilarni to‘g‘ri nafas olishga, uni ushlashga va tejam bilan sarflashga o‘rgatish hisoblanadi. Kuylash vaqtida, ya’ni tovush hosil qilishda nafasni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi muhim rol o‘ynaydi. Kuylash vaqtida nafas olish tez, qisqa vaqt oralig‘ida

sodir bo'lib, nafas chiqarish esa bir qancha vaqtga cho'ziladi. Kuylash jarayonidagi nafas fiziologik nafasdan keskin farq qilib, ijro etilayotgan asar harakteriga qarab o'zgarib turadi.

Kuylash jarayonida nafas olishning bir qancha turlari aniqlangan: pastki qovurg'a kengayuvchi nafas, yelka kengayuvchi nafas, qorin bilan nafas olish, ko'krak bilan nafas olish. Kuylash vaqtida nafas olishning pastki qovurg'alar kengayuvchi nafas olish va qorin bilan nafas olish turlarini ishlatish ma'quldir. Diafragma odam organizmida ko'krak va qorin bo'shlig'ini ajratib turadi. Pastki qovurg'alar va diafragma vositasida nafas olishda, nafas olish va chiqarish diafragma orqali tartibga solinadi. Xonanda xuddi gul hidlagandek nafas oladi. Bunda o'pkalar kengayib pastki qovurg'alarmi tashqi tomonga suradi va diafragma pasayadi. Natijada qorinning devori oldinga shishib chiqadi. Bu holda yelka va ko'krakning yuqori qismi o'zgarmaydi. Nafas chiqarish qorin tarang qobig'ining harakati bilan boshqariladi va havo yuqoriga yo'naladi. Ovoz pardalarini tebranishga undaydi. Pastki qovurg'alar va diafragmalar asta-sekin o'z qobig'iga qaytadi.

Ovozni kuylashga tayyorlash mashqlari oddiydan murakkabga tartibida olib boriladi. Mashg'ulotlarda to'g'ri ovoz pozitsiyasiga va nafasga, yaxshi ansambl va xor soziga erishiladi. Ayniqsa, artikulyatsiya apparatining aktivligi oshadi. Shu bilan birga ovozni rivojlantirish, uning diapazonini kengaytirish, so'z talaffuzining aniqligiga erishish, garmonik qobiliyatni o'stirish kabi muhim ishlar ko'zda tutiladi.

Ovoz mashqlarni o'rta registr, qulay tessitura, o'rta dinamika, sekin tempda oddiy mashqlar bilan unisonda boshlab, sekin-asta garmonik (ikki, uch va to'rt ovozli) tuzumlarga o'tish maqsadga muvofiq. Ovozlarni qizdirish barcha ishtirokchilar, ya'ni butun xor bilan birga boshlansa, ba'zi mashqlarda alohida ovozlar: pastki ovozlardan boshlab keyin yuqori ovozlar qo'shiladi. Ba'zi asarlardan namunalar ham mashqlarda qo'llanilishi mumkin. Mashqlar fortepiano jo'rligida, jo'rsiz yoki kamerton yordamida kuylanishi mumkin.

Ovoz mashqlari jarayonida vokal – xor texnikasi kuylash malakalari mustahkamlanadi. Bu mashqlar 10 – 15 minut goho undan ko'proq davom etadi.

Ovozni qo'shiq kuylashga tayyorlash mashqlari ma'lum tartibda o'tkazilib unda ovozni to'g'ri hosil qilishga, to'g'ri nafas olishga, yaxshi ansambl va jarangdorlikka erishiladi. Natijada, o'quvchilarining ovoz imkoniyatlari mustahkamlanadi.

Mashqlar ketma-ketligi har doim bir xil kuylanishi shart emas. Ovoz sozlash mashqlari ustida ishlash jarayonida o'rganiladigan asarlarning jumlalaridan mashq sifatida foydalanish ham mumkin, ularni mukammal o'rganilganligi asarlarning ijrosi vaqtida yaxshi natija beradi. Bunday yondashuv asardagi ma'lum bir vokal – texnik ijro masalalarini hal etishda ham yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan umuminsoniy ma'naviyati va milliy qadriyatlarini singdirish - yoshlarni vatanparvar, barkamol inson qilib, tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash nafosat tarbiyasining asosiy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. U o'quvchilarni musiqa san'ati asarlarini tushunishga va ijro etishga o'rgatadi. Musiqa jamiyat hayotining muhim qismidir. U inson hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, uning his-tuyg'ularini badiiy tilda ifoda etadi. Vatanparvarlikni e'tiqodga aylanishi har bir inson qalbida ichki ma'naviyatning ifodasini belgilab beradi. Milliy vatanparvarlik bu o'zbek xalqining qoniga singib ketgan iymon va insof, mehr- muhabbat, oqibat, vijdon, ona yurtiga, o'z eliga sadoqat, axloqiy ma'naviy qarashlar yig'indisi tushuniladi.

Shu boisdan ham san'at oliygochlariiga o'qishga kirish istagini bildairgan yosh talabgorlarning musiqiy ko'nikmalarga ega bo'lishi har tomonlama foydali bo'lib, kelajakda yetuk mutahasislar bo'lib yetishishida ko'makchi vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov F. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. T.: Aloqachi. 2008.
2. Arthur P. Schmidt “Song from the Rubáiyát of Omar Khayyám (Fitzgerald’s version)”, Boston Plate, 1898. p:120.
3. During J. et al., “*The Art of Persian Music*”, Washington, D.C., 1991.p:87.
4. Mahmudov J., Mahmudova X. Rejissura asoslari. -T.: O’DSI bosmaxonasi. 2008.
5. Park R. E. Race and Culture / R.E.Park. - Glencoe: Free press, 1950. –355 p.
6. Sayfullayev B., Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati. -T.: Fan va texnologiya, 2012.
7. Azizzxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – b. 153.
8. Akbarov I. Zamonaviy qo’shiqlar. – Toshkent: 1969.
9. Alisher Navoiy. Mutrib va mug‘anniylar zikrida. – Toshkent: O’qituvchi. 1998.
10. Asqar F. Musiqa va inson ma’naviyati. – Toshkent: O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2000.
11. Asqarov A. Bosh muharrirligida. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1996. – B. 227.
12. Burxanov M. Liricheskiye pesni i romansi. – Toshkent: 1961.
13. Daukeva S. Filosofiya muziki Abu Nasra Muxammada al-Farabi. – Almati, 2002.
14. Jabborov A.H. O’zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – Toshkent: 2004.